

BOLALARGA TA'LIM TARBIYA BERISHDA O'YINNING AHAMIYATI**Rustamova Ruxshona Xusniddin qizi**

Qo'qon universiteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-24 guruh talabasi

rustamovaruxshona52@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20307962>

Annotatsiya: Maktabgacha bolalik – shaxs rivojlanishining qisqa, ammo muhim davri. Bu yillar davomida bola atrofidagi hayot haqida dastlabki bilimlarni egallaydi, unda odamlarga, mehnatga nisbatan ma'lum munosabat shakllana boshlaydi, to'g'ri xatti -harakat ko'nikmasi va odatlari rivojlanadi, o'z xarakteri paydo bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshda o'yinning muhim faoliyat sifatida katta ahamiyatga ega. Ko'pincha turli xil o'yinlar bolalarning yoshi bilan bog'liq. Masalan, kichik yoshdagi bolalar yakka tartibdagi va parallel o'yin bilan shug'ullanishlari ehtimoli ko'proq, ammo katta bolalar o'z fikr va his-tuyg'ularini o'rganishi uchun yolg'iz o'ynashga yoki ortiqcha rag'batlantirishdan tanaffus olishga muhtoj.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, o'yin, syujetli-rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, rivojlantiruvchi o'yinlar

KIRISH

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning ma'naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichmabosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi. Haqiqatdan ham o'yin, har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi.

O'yin bola o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni “bolalikning hamrohi” deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum- o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'limtarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay

boshlaydilar. MTTning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rne juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi.

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi
- o'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi oynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasviriyotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechilmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarakatrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri etarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi.

Bolalarga harakat faoliyatining xilma-xil sharoitlarida erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan zarur bilimlarni berish va ulardan kerakli xarakteristik malakalarini hosil qilish lozim. Ularda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy hislatlarni tarbiyalash zarur. Bundan tashqari, bolalarda turli o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga qiziqish uyg'otish, harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish shart. Ularni o'tkazishdan tarbiyachi yoki yo'riqchi tashkilotchilik va tarbiyaviy roli juda ma'suliyatlidir.

Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtiribgina qomay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta kichikligi, fazoda tutgan o'rne xaqida ham tanishtiradi. Har bir buyum va o'yinchoq o'zining aniq tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi kerak, o'yinda esa qo'yilgan maqsad narsaning asosiy begisini ajrata bilishga imkon tug'dirishi lozim.

Mashhur pedagog A.S. Makarenko bolalar o'yinlarining rolini ta'riflab, bola hayotida o'yinni xuddi kattalarning ish faoliyati, xizmatining ahamiyati bilan tenglashtiradi. Bola o'yinda qanday bo'lsa, ishda ham ko'p jihatdan u shunday bo'ladi deb hisoblaydi. Shuning uchun bo'lajak arbobning tarbiyasi ko'p tomondan o'yin orqali amalga oshiriladi.

YA.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgafllarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega- deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan». YAn Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin - bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir,

o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. YA.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi. P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. SHunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Didaktik o'yinlar-ta'lim xarakteriga ega bo'lib, bolalar bilimining mustahkamlanishiga va kengayishiga, ularni umumlashtirishga, tizimga solishga yordam beradi. Ta'lim va tarbiya berish jarayonida har xil o'yinlardan, og'zaki, stol ustida, harakatli, ijodiy, hayolan sayohat, o'yin viktorinadan foydalanish, muammoli xolatlar keltirib chiqarish, yechimini topish, bahslashish, natijaga erishish mashg'ulot samaradorligini oshiradi. Didaktik o'yinning xususiyatlari shundaki, ta'limga aloqador masalalar, mashg'ulot jarayonida o'yin asosida, uning qoidalariga muvofiq tarzda olib boriladi. Bola o'yin ekan, u nimanidir o'rganishni o'ylab o'tirmaydi. Lekin o'yin jarayonida nimanidir o'rganadi. Didaktik o'yin mazmuni ta'limning muhim qismi sifatida kiritilgan bo'ladi. Didaktik o'yin bolalarning aqliy qobiliyatini o'stiradi. Bola o'yin jarayonida faollashadi. O'yin vazifalari diqqatni jamlashni, o'yin mazmunini anglashni talab qiladi. O'yin bolani ta'lim-tarbiya olishga, zarur ko'nikma hosil qilishga undaydi. Didaktik o'yinlar bolalarning ma'naviy va axloqiy kamolotida, ularning mukammal inson bo'lib kamol topishida tarbiyaviy ta'sir qudratiga ega. O'yin timsolida bolalar jamoa bo'lib yashashga, uyushqoqlikka, birgalikda ijod qilishga, ishlashga va mustaqillikka o'rganadilar.

Ta'limning o'yin jarayonini, ayniqsa ochiq havoda amalga oshirish bolalarda kuzatuvchanlik va ijodkorlikni rivojlantirib, ularni ranglarni, shakllarning katta-kichikligini, xidini, ta'mini aniqlashga, umuman sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishga o'rgatib boradi. Jismoniy mashqlar o'tkazish chog'ida ham turli she'riy yoki topishmoqli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda mustaqil bajarish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish, ularning zehni o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulini o'stirish, qiziqishlarini oshirish maqsadida mashg'ulotlarni zamonaviy usullardan foydalanib o'tish davr talabidir.

Bolaning aqliy o'sishi to'g'risida fikr yuritilganda, shuni aytish ham kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishiga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tuvchi narsalarning aksariyatidan o'yinga bevosita ob'ekt sifatida foydalaniladi. o'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarini aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'liq jihatini aks ettiradi.

XULOSA

Bog'cha yoshidagi bolalarning turli-tuman o'yin faoliyatlari sekin-astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi. Bolalarning o'yin faoliyatlariga tarbiyachilar ta'lim elementlarini kiritadilar. Natijada bolalar o'yin orqali juda ko'p narsalarni bilib oladilar, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlari orta boradi. Demak, o'yin faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida qudratli vositadir.

References:

1. Nuritdinova X.N., Avazova D. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni qo'llab-quvvatlashning pedagogik jihatlari (shartli nom). // Zenodo. – 2024. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15541975>.
2. Turdaliyeva N., Mamadjonova D.V. Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar. // Zenodo. – 2024. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14512200>.
3. Muxamedova L.D. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligi. // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2. – Issue 10. – ISSN: 2181-1385. – www.ares.uz.
4. Masharipova M.M. Maktabgacha ta'lim: sifat va samaradorlik, rivojlanish istiqbollari. // International Scientific-Practical Conference. – 2024. – Dekabr 4-5. – 768-b. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14327074>.
5. Xursanova D.B. Maktabgacha ta'limda innovatsion tadqiqotlar tahlili. // Таълим va инновацион тадқиқотлар (Education and Innovative Research). – 2022. – №12. – 256-b. – ISSN 2181-1709.
6. Axmadaliyeva F.S. Maktabgacha ta'limda xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar. // International Scientific and Practical Conference. – 2024. – May 15. – 25-b. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11193730>.
7. Ravshanova U.N. Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsiyalar. // Образование и инновационные исследования. – 2022. – №12. – 335-b. – ISSN 2181-1717.